

ONA

Mahfira Rajabboyeva Xidirova

Aqlni ota-onangdan topolmagan bo'lsang, ko'chadan qidirma, kitobdan qidir, ustoz-muallimdan qidir. Bulardan ham topolmasang, Qur'oni Karimdan qidir, hadisi sharifdan qidir! Demak, sen iymonga muhtojsan!

Yer yuzida jamiki inson borki, uning kamolotida, shaxs sifatida shakllanishida va jamiyatda o'z o'rnini topishida Siz azizlarning mehnatingiz, o'ringiz beqiyos. Zahmatkash, fidoyi muallim va o'qituvchilar o'z shogirdlariga nafaqat bilim beradilar, balki ular qalbiga insonga xos ezgu fazilatlarni singdirib boradilar. O'quvchisi mehr-oqibat, sadoqat, mehnatsevarlik singari xislatlar bilan ulg'ayishini istab turli pand-nasihatlar beradi, to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Xuddi ota-onamiz kabi kichik yutuqlarimizdan quvonadi, bizdagi ko'rinmas iqtidorni, qobiliyatni ilg'ay oladi, uni rivojlantirishga harakat qiladi. O'qituvchilarning rag'batlantirilishi, mukofotlanishi qalbimizga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Zero, ular o'z mehnatlari bilan nafaqat bir insonning, balki butun jamiyat taqdiridagi ijobiy o'zgarishlar, yuksalishlarga hissa qo'shadilar. Yoshlarni ham ma'nan, ham jismonan, asosiysi, ruhan sog'lom, dunyoqarashi keng, nazari to'q va nigohi o'tkir bo'lishi ham o'qituvchilarning sa'y-harakatiga bog'liq. Mana shu yo'lda hormay-tolmay mehnat qilayotgan, har qanday vaziyatda ham ta'lim-tarbiyani birinchi o'ringa olib chiqayotgan Siz aziz Ustozlarga hamisha ta'zimdamiz.

Har birimiz o'zining birinchi qo'ng'irog'ini, birinchi darsini, birinchi javobini, birinchi maktab bayramlarini, birinchi bitiruvini eslaymiz ... Va bularning barchasi ajoyib nom bilan bog'liq. Birinchi o'qituvchi.

Bolalarni o'rgatish oson emas. Ulkan mas'uliyat esa, eng avvalo, shogirdlari qalbi va taqdirida chuqur iz qoldirgan birinchi ustoz – shaxs zimmasiga yuklanadi. Ustozlarimiz o'giti, keksalarimiz pand-nasihatlariga amal qilib borsak, aslo kam bo'lmaymiz. Bu bilan ustoz va murabbiylarimiz oldidagi ilk burchimizni ado etgan bo'lamiz. Inson, avvalo, unga bilim va marifat dunyosi sari yo'l ochib bergan, uning qalbiga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirish yo'lida zahmat chekkan ustoz va murabbiylariga nisbatan ko'nglida hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashaydi

Ustoz otangdek ulug'', degan hikmatda olam-olam ma'no bor. Hatto otani quyoshga qiyos etamiz, ko'klarga ko'tarib maqtaymiz. Ammo otaday ulug' deb nisbat beriluvchi inson bor, bu – ustozdir!

Haqiqatan, ota-ona seni voyaga yetkazadi, ustoz esa unib-o'sishing, kamolatga erishishing, ilm-ma'rifat cho'qqilarini zabt etishiga ko'maklashadi. O'z umrini,

aql-idrokini, tajribasi va bilimni sening yo'lingga sarf etadi. Yutug'ingni ko'rib quvonadi, muvaffaqiyatsizligingdan g'am chekadi.

Ustoz bog'bonga o'xshaydi. U tarbiyalab o'stirgan nihollarning hosili qanchadan-qancha avlodlarni bahramand qiladi. Ustoz va murabbiylarning ma'suliyatli, ammo sharaflil kasblarini bir mash'alaga qiyos etish mumkin. Bugungi kun o'qituvchisining kechagidan farqi yo'q. Ularning maqsadlari hamisha bir xil. Lekin ishlash tartibi, sharoit va talablar boshqa. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar mehnatni munosib rag'batlantirish, moddiy-texnik baza hamda ishlash sharoiti, sifatni yana-da yaxshilashga qaratilgan. Bu orqali yoshlarni zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarga ega, barkamol avlod qilib ulg'aytirish maqsad qilingan.

Albatta, ustoz va murabbiylar jamiyat binosining binokorlari, ma'rifat bog'ining bog'bonlaridir. Ular hayot bo'stonidagi niholning baquvvat daraxtga aylanishi uchun beqiyos mehnat qiladi. Shuning uchun ham uning shogird ustidagi haqqi benihoya katta va ulug'dir.